

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov	
O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy	6
G.M.Oripova	
Ayol ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri.....	9
M.A.Jo'rayeva	
Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri	13
G.Muhammadjonova	
Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok.....	17
I.A.Эшонқулов	
Тавсифи мушаххаси тазкираҳои Ҳашмати Бухорой.....	21
B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova	
"Bobotog"essesida peyzaj: flora tasvirida badiiylik.....	28
I.A.Эшонқулов, З.П.Аҳмедҷонова	
Ситоиши хирад ва хирадгустарӣ дар "Шоҳнома"-и Ҳаким Фирдавсӣ	34
D.T.Musayeva	
Elizabet Gaskel ijodiga nazar	39
H.H.Қаюмов	
Муаммои шинохти санъати ташхис дар поэтикаи мумтози форсу тоҷик.....	42
Sh.T.Ibragimov	
"Babur the tiger" romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi	47
J.T.Ibragimov	
"Qutadg'u bilig" istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqur mulohaza.....	55
A.A.Akbarov	
Vatanga muhabbatning lirik ifodasi	61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova	
Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun	66
Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова	
Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок.....	71
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida	81
A.B.Uralov	
Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar	86
Z.A.Davlataliyeva	
Ingliz tili darslarida talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari.....	90
H.A.Абдуллаева	
Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках	95
H.A.Отахонова	
Проблемы общей теории и классификации лингвокультурам	100
B.B.G'aprov	
Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi.....	106
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili.....	112
N.Fidan	
Ellipsis in English text linguistics	115
M.O.Qulmamatova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "boylik/wealth va kambag'allik/poverty" konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari.....	120
N.X.Boboqulova	
Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili	124



UO'K: 821.512.133-1:316.723

VATANGA MUHABBATNING LIRIK IFODASI**ЛИРИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЛЮБВИ К РОДИНЕ****LYRICAL EXPRESSION OF LOVE TOWARDS THE HOMELAND****Akbarov Aziz Abidovich**

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Maqolada ulug' nemis shoiri Haynrix Hayne lirikasida tarannum etilgan voqea-hodisalalar, kechinmalarning hayotiy omil va badiiy asosalari o'zbekcha tarjimalar asosida tahlidga tortilgan.

Аннотация

В статье проанализированы события и переживания, отраженные в лирике великого немецкого поэта Генриха Гейне, на материале узбекских переводов произведений поэта.

Abstract

The article analyzes the events and emotions reflected in the lyrics of the great German poet Heinrich Heine, based on the material of Uzbek translations of his works.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, muhojirlik, siyosiy she'riyatning cho'qqisi, tanqid qilmoq, ona yurt, ona tili, yurakdagi dard, milliy taom, yostiq, yo'lga tushmoq

Key words: patriotism, emigration, the peak of political poetry, criticize, native land, native language, national dish, pain in the heart, pillow, departure

Ключевые слова: патриотизм, эмиграция, вершина политической поэзии, критиковать, родина, родной язык, душевная боль, национальное блюдо, подушка, отправиться в путь.

KIRISH

Buyuk nemis shoiri, jahon adabiyotining yorqin yulduzi Haynrix Hayne Muqaddas Rim imperiyasining Reyn viloyati Dyusseldorf shahrida tavallud topdi. Bu voqea XVIII asrning to'qson ettinchi yili qish faslining birinchi oyi o'n uchinchi sanasida sodir bo'ldi. Buyuk shoirning tavalludiga joriy yil o'n uchinchi dekabrda 228 yil to'ladi. Bu sanani butun jahon she'r shaydolari bayram sifatida nishonlaydilar.

Uning bolaligi tug'ilgan shahrida, o'smirligi Hamburgdagi milliarder, bankir amakisi Salomon Hayne xonadonida kechdi.

H.Hayne bolalik va qarindoshlari uchun "Garri", Fransiyada A(bironta she'rini o'qimagan ayoli Matilda uchun) "Anri En", rus talaffuzida "Genrix Geyne" deb ataldi. Ota-onasi, amakisi Hayneni savdogar qilishga rosa urindilar, afsuski undan uddaburro tijoratchi emas, hasos shoir chiqdi. Hayne yoshligidan ajoyib, dilbar she'rlar bita boshladi. Uning haqiqatparvarlik, jamiyatdagi nosozliklarga qarshi ruhdagi she'rlari hukmron doiraga yoqmay qoldi. Asarlari tufayli uni iskanjaga ola boshladilar.

Germaniyadagi nosog'lom muhit shoirni 1831-yil may oyida Parijga ko'chib ketishga majbur qildi. U Parijdagi 85 minglik muhojirlarning biriga aylandi va umrining so'ngigacha Fransiyada qolib ketdi. U muhojirlikda umrining oxirgi daqiqalarigacha ona vatanini sog'inib yashadi. O'n uch yildan so'ng (1831-1843) u Germaniyaga borish imkoniyatiga ega bo'ldi. Safar natijasida shoirning vatanparvarlik ruhidagi "Germaniya. Qishki ertak" deb nomlangan mashhur asari dunyoga keldi.

"Germaniya. Qishki ertak" hozirgacha bir yuz sakson bir yil (1844-2025) mobaynida ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Asarning o'z vatanidagi taqdiri, uning rus tiliga va rus tili orqali boshqa ko'p tillarga qilingan tarjimalari so'zimizning isbotidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Asarning rus tilida o'n to'qqiz tarjima varianti mavjud, o'zbek tiliga Abdulla Sher (1984) va A'zam Ismoil (2019) o'g'irishgan.

Haynening mazkur "Germaniya. Qishki ertak" asari O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher tomonidan rus tilidan o'zbek tiliga birinchi marta mahorat bilan o'g'irilgan. Bu tarjima o'ta jozibador va o'zbekcha ohangga ega. O'zbek o'quvchilari dunyo satirasining cho'qqisi bo'lmish mazkur asar bilan o'z ona tillarida tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar [1].

Ta'kidlash joizki, bugungi o'zbek kitobxoni H. Haynening mazkur asarini yana bir marta o'z ona tilida o'qish imkoniyatiga musharraf bo'ldi. Bu imkoniyatni shoir A'zam Ismoil bizga tuhfa qildi. Tarjimon asar g'oyasini yaxshi tushungan, shu sababli asar ruhiyatiga kira olgan. Asar asliyatdan tarjima qilinganligi bilan bizni quvontirsa, yana bir jihati shoir o'zbek she'riyatining keng imkoniyatlaridan juda ustalik bilan foydalanganki, asar go'yo o'zbek tilida yaratilgandek taassurot uyg'otadi kishida [2].

Taniqli vatanparvar nemis shoiri Haynrix Hayne Parijda muhojir bo'lib turgan vaqtida ona vatani Germaniyani qattiq sog'indi. Bu quyidagi misralarda yaqqol aks etgan:

Germaniya havosidan nafas olmog'im zarur,
Aks holda sog'inchdan tamom bo'laman.

U haqiqatan ham ona vatanini, uning tuprog'ini, ayniqsa, torf isini, Lyuneburg qo'y-qo'zilari, hatto sholg'om, barg yozgan karam, ulkan bochka, pivo, tamaki, nemischa qo'pollik, semiz amaldor, qirmizi yuz kashish qizlari, hamma-hammasini sog'indi. U sog'inch hislarini asarning "Parij bilan xayrlashuv"ida quyidagicha bayon etadi:

Xo'rsinishsiz eslay olmayman
Hozir hatto torf hidini ham.
Lyuneburgning qo'y-qo'zilari,
Hatto sholg'om, barg yozgan karam.

Ulkan bochka, pivo, tamaki
Va nemischa qo'pollik-barin-
Qorovulu semiz amaldor
Yo qirmi yuz kashish qizlarin [1.9].

Shoirni o'n uch yil avval kuzatgan mushtipar onasi va singlisi Lothenni ko'rish shirin orzularidan biri edi. Onasi bilan xayrlashganiga o'n ikki yil bo'lganda "Tungi o'ylar" „Nachtgedanken“ (1843) she'rini bitdi. Bu asarda shoir tunda uyqudan oldin ona yurti Germaniya haqida uzoq o'ylashi, qaynoq ko'z yoshlari tufayli tunlari ko'zlarini yuma olmasligini aytadi. Yillar kelaverdi, ketaverdi va onasini ko'rganiga ham o'n ikki yil to'lib, sog'inch va iztiroblari ortib ketdi. Onasining yozgan xatlaridan ko'llari titrashini, uning yuragi bezovta bo'layotganini sezardim,- deydi. Tangridan onasini asrashini so'rab, unga uzoq umr tilardi. O'n ikki yil davomida qancha vatandoshlari dunyodan o'tganini eslab, ko'ngli buzilardi. Biroq derazadan fransuz tongining charog'on nurlari tushib, tong kabi go'zal ayolim xonamga kirib tabassum qilganda, nemis tashvishlarni tarqatib yuborardi,- deb yozadi [3.162-163]. Mana endi u yil nihoyasida ona yurti Germaniyaga borishga va onasini ziyorat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Tangriga uning ko'z yoshlari, sog'inch, iztiroblari va onasining duolari etib bordi.

Ezgu niyatli ona o'g'illariga yashash uchun katta shaharlarni tanlashlarini tayinlagan edi. O'g'illaridan biri Sankt-Peterburgda, yana biri Avstriyada yashab qoldi. Shoir esa taqdir taqozosi bilan Parijda qo'nim topdi. Singlisi Lothen onasi Betti Hayne bilan Germaniyada qoldi.

Ko'rmoq o'yi kekxa onamni,
Rosti, ko'pdan eng shirin orzu.
Axir, bundan sal kam o'n uch yil
Avval meni kuzatgandi u.

Tengsiz dardga aylandi sog'inch...
Shifo topib, lekin Parijga.
Tez qaytgayman-komil ishonchim,

ADABIYOTSHUNOSLIK

bir dunyo sovg'a keltirgayman sen uchun jonim [1.10]- deb, rafiqasi Matilda bilan xayrlashib, Germaniya sari yo'lga chiqdi.

"Germaniya. Qishki ertak" („Deutschland. Ein Wintermärchen“) Haynening o'n uch yil muhojirlikdan so'ng Germaniyaga qilgan safari haqida yozilgan. Shoir 1843 yil (1831-1843) yigirma birinchi oktabrda Parijdan chiqib, Bryussel, Amsterdam va Berlin orqali yigirma to'qqizinchi oktabr kuni Hamburgga kirib keladi.

Yettinchi dekabrda Hamburgni qoldirib, Aaxen, Kyoln, Myulxeym, Unna, Tevtoburg o'rmoni, Padeborn, Minden, Bryukeburg, Hannover va Harburg orqali Parijga yo'l oladi. Asarda aynan mana shu yo'nalish taassurotlari tasvirlanadi.

Hayne siyosiy she'riyatining cho'qqisi bo'lgan mazkur asar XIX asr jahon she'riyatidagi eng nodir namunalardan biri hisoblanadi.

Hayne ijodida "Safar manzaralari" ("Reisebilder") alohida o'rin tutadi. O'sha davr matbuotida shov-shuv bo'lib, barchaning diqqatini o'ziga tortgan bu asar shunchalik mashhur va hukumat uchun o'ta xavfli bo'lganki, unda nemis jamiyati, manfur va jirkanch shaxslar o'z aksini topgan. Shuning uchun bu asarga o'ta xavfli deb qaralgan.

Hayne asarlaridan xuddi cho'g'ni ushlagandek cho'chishlarining sababi, shoir asarlarida mayda (36) qirolliklarga bo'lingan Germaniyani, faqat o'z manfaatlarini ko'zlaydigan qirollikni qattiq tanqid qilganidir. U o'z vatanini yaxlit davlat sifatida ko'rishni istaydi. Eski tuzumga, qirol va qirolliklarga nafrat bilan qaraydi. Reaksiyon shoirlarni o'tkir satira bilan tanqid qiladi. Shoirning "Safar manzaralari", "Germaniya. Qishki ertak" asarlari vatanga muhabbat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'n uch yillik muhojirlikdan so'ng yozilgan "Germaniya. Qishki ertak" asarida o'sha davr jamiyatida uchragan har bir illat o'z ifodasini topgan. Shoir qalamining o'tkir tig'idan mavjud tuzumning hech bir nuqsoni chetda qolmagan. H.Haynening tanqididan qo'rqqan mavjud tuzum nafaqat uning yozilgan asarlari, balki hali yozilmagan, yozilajak asarlarini ham ta'qiqlagan.

Hayne o'sha davrdagi inqilobiy harakatni yuqori baholaydi. "Germaniya. Qishki ertak" asari davrning tub masalalariga to'g'ri, aniq tushungan holda baho berish natijasida yozilgan. Shoir bo'lajak Germaniyani respublika sifatida tasavvur qiladi.

Haynening mazkur asari shoir hayotligida ikki marta chop etildi. 1844 yili "Yangi she'rlar" nomli to'plamda va alohida kitob holida bosildi. Hayne vafotidan so'ng noshir Kamp shoirning o'zida bor qo'lyozmalaridan foydalanib, qo'shimchalar bilan "Hayne she'rlari" nomida chop etadi. Hayne Parijda moddiy jihatdan qiynalib qolganda, noshirga qo'lyozmalarini 20 ming frankka sotib yuborgandi. Kamp shoirning ana shu qo'lyozmalaridan foydalandi. Germaniyada Hayne g'oyalari ro'yobga chiqqandan keyin "Germaniya. Qishki ertak" bir necha marta qayta-qayta nashr etildi. 1861 yildan to hozirgacha asarning rus tiliga tarjimalari soni, eslatib o'tganimizdek, o'n to'qqiztaga etdi.

1844 yil yanvarida bitilgan "Germaniya. Qishki ertak", hozirgacha ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bunga dostonning o'z vatanidagi taqdiri, uning rus tiliga va rus tili orqali boshqa tillarga qilingan tarjimalari dalildir.

Asarda lirik qaramon shoirning o'zidir. "Germaniya. Qishki ertak" lirik qahramoni hayotdan nolimaydi, dunyoning, jamiyatning kamchiliklariga achinmaydi: o'z raqiblarini qo'rqinchli qilib ko'rsatmasdan, ularni masxaralaydi, raqiblari ustidan baland kelib, ularning ustidan kuladi.

Biroq A'zam Ismoil asarni "Olmoniya. Qishki dostoni" deb asar janri bilan nomlagan. „Deutschland. Ein Wintermärchen“ nemischa nomi "Germaniya. Qishki ertak" deb adekvat tarjima qilinadi [7].

«Men vatanni sizlardan kam sevmayman»-deydi shoir uni vatan xoini, fransuzparast deganlarga, asar so'zboshida. «Shu tufayli men o'n uch yil quvg'inda bo'ldim, ayni mana shu sevgim tufayli oh-voh qilmasdan, iztirobdan yuz bujmaytirmasdan yana, ehtimol butun umrga, quvg'in joyimga qaytmoqdaman».

"Men emanlar tagida yurib, Germaniyaning mavqei va dunyoviy hukmronligi haqida ko'p o'ylayman. Mening vatanparvarligim ana shunaqa", -xitob qiladi Hayne [1.7].

Buyuk nemis mutafakkiri Y.V. Gyote ta'biri bilan aytilgandek: "begona yurt vatan bo'la olmaydi" [8.35]. "Vatan muqaddasdir" shoriga binoan vatan bittadir, birdan ortiq emas! Qayerda qorin to'ysa, o'sha er vatan bo'lavermaydi! Hayne yigirma besh yil (1831-1856) vatanidan yiroqda,

Parijda muhojir bo'lib yashadi va ijod qildi. Lekin kindik qoni to'kilgan vatanidan kechmadi, yuz o'g'irmadi. Umrining oxirigacha vatanini sog'inib yashadi va o'n uch yildan so'ng ona vatani Germaniyaga safar qilish imkoniyati tug'ildi.

Shoir duyodagi eng go'zal shahar va tengi yo'q poytaxt -Parij bilan xayrlashib safarga chiqdi. Uni ko'proq "nemis yuragidagi dard", "telbanamo sog'inch", "tengsiz dardga aylangan sog'inch" ona vatani Germaniyaga chorlaydi:

Mening nemis yuragimda dard,
Menga ko'pdan tanish azob bu.
Shifo bergay faqat bir tabib,-
Ammo uyda-shimol yoqda u [1.9].

U "tabib" haqida "Bilsa edi, chechaklar gullar..." she'rida bayon etgan edi. Shoir dardini na tundagi uyg'oq bulbullar, na ko'kdagi yulduzlar, na chechaklar, gullar bilardi, bilishmasdi. Uni faqat uning yuragini pora aylagan ma'shuqasigina bilardi va bu uning "nemis yuragida abadiy dard" bo'lib joylashib qolgan edi.

Die alle können es nicht wissen,
Nur eine kennt meinen Schmerz,
Sie hat ja selbst zerrissen,
Zerrissen mir das Herz [3.34].

Yo'q, yo'q ular bilmaydi holim
Va dardimga topolmas chora.
Dardim bilar sohibjamolim
Yuragimni aylagan pora [4.36].

Abdulla Sher "Deutschland. Ein Wintermärchen" tarjimasini quyidagicha boshlaydi:

Немисча:
Im traurigen Monat November war's,
Die Tage wuden trüber,
Der Wind riß von den Bäumen das Laub,
Da reist ich nach Deutschland hinüber [].

Noyabrning ruhsiz, tund chog'i,
Osmon qovoq uygan bir sana.
Sovuq yomg'ir ostida kirdim
Germaniya bag'riga yana [1.11].

Asarning boshidagi ikki qator o'xshash, ma'nosi yaqin. Keyingi ikki qatorda farq bor. "Sovuq yomg'ir ostida kirdim, Germaniya bag'riga yana", vatan bag'riga yana. Juda mos keladi. "Sovuq yomg'ir" kuzning oxiri, qish mavsumi boshlanishidagi ob-havoni anglatadi. Asl nusxada ham, rusxada ham boshqacha, biroq Abdulla Sherda mavzu maqsadga mos tushadi.

A'zam Ismoil esa qishga boshqacha yondoshadi:
Motamsaro noyabr oyi,
Kun qovog'in uygan bir palla.
Olmoniya sari otlandim,
Qish qo'shig'in boshlar baralla [2.10].

A'zam Ismoil qish ob-havosini, ya'ni sovuq, shamol, sovuq yomg'ir va nihoyat qorni qish qo'shig'i deb atadi. Qish boshlanganini «Qish qo'shig'in boshlar baralla»deb tarjima qildi. Abdulla Sher uchinchi qatordagi «Shamol daraxtlar bargini to'kkanda»ni «Sovuq yomg'ir ostida kirdim...», A'zam Ismoil esa «Qish qo'shig'in boshlar baralla» deb tarjima qilgan. Biroq biz asar qanday tarjima qilinganligini emas, balki asarda vatanparvarlikning lirik ifodasi haqida fikr yuritamiz.

Yuriy Tinyanov tarjimasiga e'tiborimizni qaratamiz:

Ненастный месяц ноябрь стоял,
Дни становились печальней,
Ветер срывал с деревьев листву,
Я ехал к Германии дальше [5.34].

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ю.Тынянов noyabr oyi holatini to'g'ri tasvirlab, kuz shamoli daraxtlardagi so'nggi yaproqlarni uchirib ketayotganini bayon qildi. Biz bilamizki, shoir quz bilan qish oralig'ida safarga chiqdi, voqelik qishga, fasl almashinishiga to'g'ri keladi.

Lirik qahramon chegaraga etib kelgach:

Nemischa so'z yangradi nogoh,
Men tingladim to'liqli his-la:
Go'yo yurak ajib rohatbaxsh
Orziqishdan erirdi asta [1.11].

Olmoncha so'z quloqqa inib,
Ko'ksim ajib urdi-da notinch
Va yig'ladi yurak tushmagur,
Go'yo shirin o'rtadi sog'inch [2.10].

Когда услышал немецкую речь,
Мне как то странно стало;
Как будто кровью сердце мое
Приятно истекало [5.34].

Yurtini, ona tilisini o'ta sog'ingan shoir kechinmalarini uch tarjimon uch xil talqin etadi. Abdulla Sherda shoir nemischa so'zni eshitganda to'liqlanadi, rohatbaxsh orziqishdan yuragi asta-sekin eriy boshlaydi. A'zam Ismoilida olmoncha so'z kuloqqa ilinishi ko'ksiga biron bir musht urgandek, notinchlikdan yuragi yig'lay boshlaydi. Bunga sog'inch sabab shoir qalbini shirin his o'rtadi. Y. Tiyanovda esa nemischa nutqni eshitgach, o'zini boshqacha his qiladi, go'yo yuragidan yoqimli qon sizib chiqayotgandek. Uchchala tarjimada ham "nemischa so'z", "yurak", "sog'inch" so'zlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu satrlar vatanparvar lirik qahramonning nafaqat vatanini, balki ona tilisini ham sog'inganini, qo'msaganini bayon etadi.

XULOSA

Vatanparvar shoir hatto ona yurtining isini qadrlashini ham aytib o'tadi. Agar u ona yurt isini onasining hidiga o'xshatganda, yanada o'rinni bo'lardi. U yana stoldagi g'oz go'shti, dafna bargiga o'ralgan cho'chqa bolasigacha ta'riflaydi. U nemis taomlarini ham juda sog'ingan edi.

Ulug' nemis shoiri va mutafakkiri H. Haynening har bir misrasida Vatan sog'inchini ufarib turadi. Ona yurt nafasi, qadrdon tuproq tafti, millatdoshlar bilan g'ururlanish tuyg'usi shoir asarlarida o'zining yuksak poetik ifodasini topgan. Hayne asarlarining o'zbek tarjimalari ana shu hissiyot va taassurotlarni asl nusxaga qanchalar yaqinlashtirsalar, shoirning badiiy mahorati, g'oyaviy maqsadlari, falsafiy talqinlari shunchalik jilolanaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хенрих Хейне. Германия. Қиш эртаги. Абдулла Шер таржимаси. Ёш гвардия нашриёти. Т. 1984.
2. Хайнрих Хайне. Олмония, Қишки достони. Аъзам Исмоил таржимаси. Т. Akademnashr. 2019.
3. Heines Werke in fünf Bänden. Erster Band. Gedichte. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar. 1970.
4. Хайнрих Хайне. Севги изтироблари. Туплаб нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Акбаров А. "Доно нашриёти". Т. 2019.
5. Генрих Гейне. Германия. Зимняя сказка. Перевод Ю. Тынянова. Л., 1934.
6. Акбаров А. Хаунрих Хауненинг balladanavislik mahorati yohud "Loreley" she'rining ozbek tiliga tarjimalari haqida. FarDU ilmiy xabarlari. Maxsus son. 2022 й., 835 . 839 бетлар.
7. Раҳимов Ҳ. Qisch qo'shgin boshlar baralla... Газ. Ma'rifat. 21.02.2024.
8. Гёте Йоханн Вольфганг. Тошкент. "Янги авлод". 2011.